

## HADIS ILMINING PAYDO BO'LISHI. IMOM AL-BUXORIYNING PEDAGOGIK G'OYALARI.

**Razzoqova Shaxnoza Jo'rayevna**

**“Jo'ybori Kalon” ayol-qizlar o'rta maxsus**

**Islom ta'lim muassasasi o'qituvchisi**

**Buxoro sh.**

**E-mail: [razzokova.shahnoza@mail.ru](mailto:razzokova.shahnoza@mail.ru)**

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada hadis ilmining paydo bo'lishi tarixi va uning rivojlanishi, keng tarqalishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Bilamizki, hadis ilmining rivojlanishi uchun o'zining ulkan hissasini qo'shgan alloma Imom Al-Buxoriy hisoblanadi. Barchamiz mana shunday buyuk bobokalonimizning hayot yo'llarini, qilgan barcha amallarini va to'plagan jamiki hadislarini o'rganishimiz, hayotimizga tatbiq etishimiz va kelajak avlodlarga yetkazishimiz zarur va shartdir.

**Kalit so'zlar:** islom dini, Markaziy Osiyoda uyg'onish davri “Sahihi Buxoriy”, “Tazkirat ul-Hufoz” (“Hofizlar haqida tazkira”), sahih va nosahih hadislar.

Avvalambor, biz faxr va iftixor bilan ta'kidlay olamizki, biz, o'zbek ahli dunyo ahliga ilm-u ma'rifat, iymon, e'tiqod sabog'ini ulashgan buyuk ajdodlarning avlodlarimiz. Buning buyuk asosi esa hech shubhasiz, muqaddas dinimiz-Islom diniga borib taqaladi. Dinimiz bizni eng avvalo ezgulikka, tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni, insoniylikni asrab-avaylashga da'vat etadi. Markaziy Osiyo uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyondalari Islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman. Ana shunday allomalarimizdan biri Imom Al-Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Qur'oni Karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan **“Sahihi Buxoriy”** ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan. Bunday buyuk zotning boy me'rosini asrab-avaylash va o'rganish, islom to'g'risidagi ta'limotni keng yoyish maqsadida Samarqand

shahrida Imom Al-Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazi bunyod etilgan.

Butun Islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deya tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining mualliflaridan biri, boshqa muhaddislar ustози, imomi, hech shubhasiz Imom Al-Buxoriy hisoblanadi. Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy bo'lib u Buxoro shahrida tug'ilgan.

Boshqa ko'pgina olimlardan farqli ravishda Imom Al-Buxoriyning otasi Ismoil o'z davrining taniqli va g'oyatda ilmiy kishilaridan bo'lgan. Imom Al-Buxoriyning otasi juda erta vafot etadi va u onasi tarbiyasi ila voyaga yetadi. U yoshligidan aql-idrokli juda o'tkir zehni, ma'rifatga havasi kuchli bo'lib, turli xil ilm-fanlarni, ayniqsa hadis ilmini kuchli qiziqish bilan egallaydi. Manbalarda keltirilishicha, u 10 yoshidan boshlab o'z yurtidagi turli roviylardan eshitgan hadislarini yod olgan, ularni o'rgangan, Abdulloh ibn Muborak, Vakiy kabi olimlarning hadislar keltirilgan to'plamlarini yod olgan.

Buxorodagi yetuk allomalardan dars olib, hadis ilmida kuchli xotira va o'tkir zehn sohibi bo'lib voyaga yetadi. Imom Al-Buxoriy 16 yoshida Onasi va akasi Ahmad hamrohligida Makka shahriga haj qilgani borib, o'sha yerda qoladi va hadis ilmini o'rganishda davom etadi. U yerdagi ulamolardan Payg'ambarimiz s. a. v ning hadislarini yozib olib, o'sha davrdagi islom olamida mashhur bo'lgan ilmiy markazlarga safar qiladi, qishloq va shaharlarni kezadi, hadis ilmidagi bahs-munozaralarda ishtirok etadi. Natijada, Imom Al-Buxoriy hadis ilmida yuksaklikka, kamolotga erishadi, o'zi yod olgan 600 mingga yaqin hadislarini sahih va g'ayri sahihlariga ajratdi.

Imom Al-Buxoriy muhaddislar orasida **“Imom ul-Muhaddisiyn” (Barcha muhaddislarining peshvosi)** deya hurmat bilan tilga olingan. Imom Al-Buxoriyning **“Al-Jome as-Sahih”** (ishonchli to'plam) asari haqida so'z borganda shuni aytish mumkinki, ushbu islom dini ta'limotida Qur'oni Karimdan keyin asosiy manba sifatida foydalanib kelinadi. Imom Al-Buxoriy yashagan davrdan oldin yozilgan hadis kitoblarda sahih va g'ayri sahih hadislar aralash holatda

berilgan bo'lib, uni o'rganuvchi ulardagi biror hadisni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini, hadis rivoyat qiluvchining ahvolini tekshirmay va aniqlamay turib, bilolmas edi. O'quvchilar o'sha hadisga aniqlik kiritish maqsadida ulamolardan so'rashlikka majbur bo'lishgan. Mana shunday og'ir davrda Imom Al-Buxoriy "Al-Jome as-sahih" asarini 16 yilda yozib tugatib, unga 7275 dan ortiq sahih hadislarini boblarga ajratgan holda jamlaydi.

Imom Al-Buxoriyning ijodiy me'rosi, o'zining hajmi, zamonasining diniy va ijtimoiy fanlarini to'laligicha qamrab olganligi bilan kishini hayratga soladi. Movarounnahrda birinchi bo'lib Imom Abdulloh Ibn Muborak al-Marvaziy hadis to'plamini yaratgan. Bundan tashqari Ahmad ibn Hanbal Al-Mavraziy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad al-Barakotiy, Ibrohim ibn Ma'qul an-Nasafiy va boshqalar hadis to'plamlarini yaratishgan. Keyinchalik, siyosiy ixtiloflar natijasida, g'arazli kishilar tomonidan, Payg'ambar nomidan yolg'on hadislar to'qisa, fiqh va kalom ilmi sohasidagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, amir va hokimlarga hushomadgo'ylik oqibatida ko'plab ishonarsiz, to'qima hadislar yuzaga kelgan. Davr o'tishi bilan hadislar to'planib, eng muhim va to'g'ri deb hisoblanganlari bir tizimga solina boshlaydi.

IX-X asr boshlarida dindorlar orasida eng ishonchli deb topilgan hadisning 6 ta to'plami vujudga kelgan. Bular: "Sahihi Buxoriy", "Sahihi Muslim", "Sahihi Termiziy", "Sunani Abi Dovud", "Sunani Ibn Moja", "Sunani Nasoiy" hisoblanadi. Bu 6 ta hadislar to'plamini tuzgan muhaddislardan ikkitasi Movarounnahrlik, to'rttasi esa Xurosonlik bo'lgan. O'sha davrda hadislar to'plami "Sunna" deb nomlangan. Hadislarni yig'uvchi, sharhlovchi, targ'ib etuvchi shaxslar muhaddis deb atalgan.

Islom dinini qabul qilgan xalqlar madaniy va g'oyaviy me'rosining katta qismi islom diniga hadis shaklida o'tgan. Hadis yig'ish o'rta asr musulmon madaniyatining muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, u bilim izlashlikning asosiy mazmuni hisoblanadi. Islom dinida eng asosiy manba Qur'oni Karimdir. Hadislar ana shu muqaddas asardan keyingi o'rinda turuvchi mo'tabar manbadir. Hadislar Muhammad s.a.v hayoti va faoliyati, shuningdek, uning turli sharoitlarda diniy,

falsafiy, axloqiy-ta'limiy mavzularda aytgan xilma - xil fikirlari, ko'rsatmalari yoki munosabatlarini aks ettiradi.

Hadislarning yuzaga kelishi uch omil bilan ko'rsatiladi:

1. Payg'ambarimiz s.a.v tomonidan ko'rilgan yoki kuzatilgan ishning ta'qiqlanmagani. 2. Payg'ambarimiz s.a.v tomonidan aytilgan gaplar. 3. Payg'ambarimiz s.a.v ning qilib ko'rsatgan ishlari. Ana shu 3 holatning har biri sunnat diyiladi. **“Sunnat” arabcha so'z bolib**, uning lug'aviy ma'nosi **“yo'l, ravish, odat”** demakdir. Istilohiy ma'noda esa Muhammad s.a.v ning qoldirgan urf-odatlarini tushuniladi. Ularni bajarishlik vojibdir. Ularda islom diniga oid tushinchalar va ularning talqini, xususan, farz, vojib, sunnat, halol, harom, makruh kabi tushunchalarning ma'no qamrovi, izohi o'z aksini topgan. Hadislarning asosiy katta qismi axloq-odob masalalariga, inson ma'naviyati bilan bog'liq muammolarga qaratilgan. Shuning uchun ham hadislar eng qadimgi davrlardan ya'ni Payg'ambarimiz s.a.v zamonidayoq juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Hadislar imkoni boricha xatosiz, asl holida boshqalarga yetkazilishi lozim bo'lgan.

Imom Al-Buxoriy o'z hayotini mana shu hadis ilmini o'rganishlikka, uni insonlarga aniq va to'laligicha yetkazishlikka baxshida etganlar. 18 yoshga kirganlarida ular bir qator yirik ilmiy asarlar muallifi edi. Hoshid ibn Ismoil ismli bir hamdars olimning guvohlik berishicha, Imom Al-Buxoriy bir necha sheriklari bilan Basra shaxrining yirik ulamolaridan biriga borib saboq olar ekanlar. Hammalari eshitgan hadis va rivoyatlarni ustozining og'zidan chiqishi bilanoq batartib yozib olishga shoshilar ekanlar. Imom Al-Buxoriy esa qog'oz-qalamsiz dars tinglab yuraverar ekanlar. Bir kuni talabalar: “O'n olti kun olgan darsimizni Buxoriydan bir so'rab ko'raylikchi, esida bormikan?” deyishibdi va imtihon qilishibdi. Buxoriy 16 kun ilgari o'tilgan darsni birorta kamchiliklarsiz, batartib yoddan o'qib bergandan keyin, uning xotira va qobilyatiga lol qolib, o'zlari yozib olgan darslaridagi kamchiliklarini ham tuzatib olishibdi.

Hadislarning mavzu qamrovi nihoyatda keng. Ular payg'ambarimizning s.a.v hayoti va faoliyati bilan bog'liq hadislar talqini, o'zaro insoniy munosabatlar, do'stlik, ahillik, saxovat, Ota-onalarga va qarindosh urug'larga munosabat,

halollik, poklik, adolat, insof, diyonad, hasad, xiyonat, rostgo'ylik, yolg'onchilik va boshqa insoniy fazilatlar va nuqsonlar ustida bahs yuritiladi. Muhimi ularda yuksak insoniy fazilatlar ulug'lanadi, kishilarda shunday xislatlarning bo'lishi ma'qullanadi va targ'ib qilinadi, aksincha, yomon fe'l -atvor xususiyatlarning kishilik jamiyati uchun kulfat va azoblar keltirishi, qayta -qayta ta'kidlanadi va qoralanadi. Hadislarda Ota-onaning nazaridan qolish gunohlarning eng og'iri sifatida baholanadi. Gunohlarning eng kattasi-Tangriga shirk keltirmoqlik, nohaq qon to'kmoqlik Ota-onaga oq bo'lmoqlik va yolg'on guvohlik bermoqdir. Boshqa bir hadisda esa Ota-ona nazaridan qolgan farzand Tangri nazaridan ham qolishi qayd etiladi va ularning Jannatga kirmasligiga sabab bo'lishi uqtiriladi. Quyidagi hadisda ham shu ma'no o'z aksini topgan: "Ota- ona qarg'aganni tangri qarg'aydi. Tangridan boshqaga atab jonlik so'yuvchilarni Tangri la'natlaydi". Hadislar Onalarni alohida sharaflaydi. Ularning qadrini baland ko'rsatish, ularni ulug'lash, asrab avaylashga alohida urg'u beriladi. Hadislar hayot hodisalari haqidagi o'gitnomalardir. Demak, hadislar mazmunan har bir mo'minning ishonchini, e'tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni ma'naviy kamolotga da'vat etadi. Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. "Islom, ya'ni musulmonchilik oshkora narsadir, iymon esa dildadir. Iymon va amal bir- biriga juda yaqindir".

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Oltin silsila: Sahihul Buhoriy - T.: Hilol Nashr, 2012.
2. Hadis: Al-Jome'as-sahih (Ishonchli to'plam) Arabchadan A. Abdulloh tarjimasini. - T.: Qomuslar Bosh Tahririyati, 1992.
3. Niyozov G. Ahmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. - T.: Noshir, 2011.
4. "Ma'naviyat yulduzlari" (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, T.: 1999.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19- sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan.
6. Yadgorovna, B. K. (2021). FAMILY PSYCHOLOGICAL CORRECTION OF

C

H

I

L

D

Бахронова, К. Я. (2021). СЕМЕЙНАЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ КОРРЕКЦИЯ ДЕТЕЙ С РАССТРОЙСТВАМИ ПОВЕДЕНИЯ. *European Journal of Humanities and Social Sciences*, (4), 50-54.

8. Бахронова, К. Я. (2021). СЕМЕЙНАЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ НИЯ. *European Journal of Humanities and Social Sciences*, (4), 50-54.